

## **Raqamlashtirish boshqarmasining vazifalari va funksiyalari**

Quyidagilar Raqamlashtirish boshqarmasining asosiy vazifa va funksiyalari hisoblanadi:

**3.1.** Jamiyatning barcha tizimida O‘zbekiston Respublikasi Senati, Oliy Majlisi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va uning Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi va uning Prezidiumi qarorlari, farmoyishlari, topshiriqlarining sohaga oid qismini, shuningdek Jamiyat boshqaruvining qaror va topshiriqlarini o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini hamda nazoratini ta‘minlaydi.

**3.2.** Yagona texnik rivojlanish siyosatini Jamiyatning butun boshqaruv vertikali bo‘ylab ishlab chiqish va amalga oshirish, jahon axborot texnologiyalari siyosatidan foydalangan holda axborot texnologiyalari yo‘nalishi bo‘yicha dasturiy ta‘minotlarni ishlab chiqish va rivojlantirib boradi.

**3.3.** Sohada dasturlarni nazorat qilishni ta‘minlaydi.

**3.4.** Jamiyat va quyi tizim korxonalar xodimlari uchun joriy etilgan avtomatlashtirilgan dasturiy ta‘minotlardan foydalanish bo‘yicha ma‘lumotlarni taqdim etib boradi.

**3.5.** Davlat organlari, moliya institutlari, shuningdek yuridik va jismoniy shaxslarning axborot tizimlari bilan bosqichma-bosqich integratsiyalashuvi asosida Jamiyatda yagona axborot tizimini shakllantirishni ta‘minlaydi.

**3.6.** Jamiyatning gaz ta‘minotini kompleks avtomatlashtirish tizimini joriy etadi.  
Jumladan:

- Gaz taqsimlash punktlariga texnik xizmat ko‘rsatish va ulardan foydalanishni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimi;
- Yagona GIS (geoaxborot tizimi);
- Gaz ta‘minoti tizimining dispetcherlik nazoratini avtomatlashtirilgan tizim (SCADA);
- Ichki gaz jihozlari va uskunalari xizmat ko‘rsatish avtomatlashtirilgan tizimi (UDGO);
- Aholi va yirik iste‘molchilar uchun avtomatlashtirilgan dasturiy ta‘minot;
- Tabiiy va suyultirilgan gaz uchun hisob-kitob billing tizimi;
- Iste‘molchilarning arizalarini ko‘rib chiqish bo‘yicha avtomatlashtirilgan tizim;
- “Aqlli” gaz hisoblagichlarini ro‘yxatga olish va boshqarish (ISKLIIG tizimi);
- Shaxsiy kabinet va mobil ilovalarni ishlab chiqish va boshqarish;
- 1C: Buxgalteriya hisobi dasturi;
- 1C: Kadrlar, ish haqi va xodimlar boshqaruvi dasturi;
- Xaridlarni boshqarish dasturi;
- Texnika xavfsizligini nazorat qilish dasturi;

- Qabul qilingan va yetkazib berilgan gaz hajmlarini hisobini nazorat qiluvchi Balans dasturi.

Shuningdek, joriy etilgan dasturiy ta'minotlarni zamon talablariga mos ravishda rivojlantirib boradi, Jamiyatning axborot tizimlari xavfsizligini ta'minlaydi, ishlab chiqarish zaruratiga ko'ra qo'shimcha avtomatlashtirish tizimlarini joriy etadi.

**3.7.** Jamiyatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish va axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha rejalarni ishlab chiqishda ishtirok etadi.

**3.8.** Jamiyatda axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha yo'nalishlarni shakllantiradi va nazorat qiladi.

**3.9.** Jamiyat apparatida dasturiy ta'minotlar va manbalarining axborot xavfsizligini ta'minlash uchun foydalaniladigan xavfsizlik tizimi va uning ma'lumotlarini himoya qilish vositalarini joriy etilishini nazorat qiladi.

**3.10.** Respublika aholi xonadonlariga o'rnatilayotgan zamonaviy elektron gaz hisoblash uskunalari bo'yicha ma'lumotlarni "Oterra Central Asia" MChJning "TAMM" dasturiga kiritib borilishini nazorat qiladi.

**3.11.** Respublika aholi xonadonlariga o'rnatilayotgan zamonaviy elektron gaz hisoblash uskunalarining dasturiy ta'minot orqali uzluksiz va soz holda ma'lumot yetkazib berilishini nazorat qiladi.

**3.12.** Jamiyatning korporativ tarmog'ini, dasturiy vositalari va ma'lumotlar almashish tizimlarini yaratish bo'yicha loyihalarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi.

**3.13.** Korrupsiyaga qarshi kurashish (ISO 37001) standartlari bo'yicha xodimlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga, Raqamlashtirish boshqarmasida korrupsiyaga murosasiz munosabatni shakllantirishga yo'naltirilgan tizimli choralarni ko'rishni tashkillashtiradi.